

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**TIL ASPEKTLARI AMALIYOTI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60110900 - Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili)

Chirchiq – 2024

Fan/mavzu kodi TAA1110 TAA1210 TAA1305	O'quv yili 2024-2025 2025-2026	Semestr 1/2/3	Kreditlar 6-4-5
Fan/mavzu turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi Til aspektlari amaliyoti	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 210	Mustaqil ta'lim (soat) 240
2.	I. Fanning mazmuni	Jami yuklama (soat) 450	

I. Fanning mazmuni
Fanning maqsadi talabalarda to'rtta til ko'nikmalari (tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirish)ni shakillantirish, ularni muloqotda to'g'ri qo'llash malakalarini rivojlantirish va til aspektlari to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatli va erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Fanning asosiy vazifasi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga ko'ra talabalarning olmon tilini B2 darajada egallashlari uchun zaruriy til aspektlarini o'rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdir. Shuningdek, til aspektlarini o'qitish amaliyoti fani talabalarning til modellari va strukturalari haqidagi bilimlarini oshirishga xizmat qiladi va ularga muloqot jarayonida grammatik va leksik formalarni to'g'ri ishlatishni o'rgatadi.

II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- olmon tilida salomlashuv va va xayrlashuv;
- olmon tilida o'zini va o'zgalarni tanishtirishni o'rganish;
- olmon tilida sanoq va tartib sonlarni o'rganish;
- xalqaro va olmoncha nom va manzillarni o'rganish;
- olmon tilida taomlarni buyurtma qilish va hisobni to'lashni o'rganish;
- taomnomasi, olmoncha xos taomlar va ovqatlanish madaniyati;
- olmon tilida vaqt birliklari, hafta kunlari, oy, yil fasllarini o'rganish;
- transport vositalari, diqqatga sazovor joylar;
- olmon tilida yo'lni so'rash va uni tasvirlashni o'rganish;

- ishxona: buyum va texnik vositalarni olmon tilida o'rganish;
- bo'sh vaqt va uni mazmunli o'tkazish;
- ta'lim va olmon ta'lim tizimi;
- Germaniyada yashash, uylar va uy jihozlarini o'rganish;
- avlodlar, oila va oilaviy munosabatlar;
- kasblar va kasbiy ta'lim;
- olmon tilida oziq-ovqatlar va ularni xarid qilishni o'rganish;
- sport sog'lik garovi;
- olmon tilida betoblikni ifodalashni o'rganish;
- moda: kiyimlar, uniformalar;
- nemis bayramlari, ob-havo haqida muloqotni o'rganish;
- ta'til va dam olish mashg'ulotlari;
- maktabdag'i kundalik hayotni tasvirlashni o'rganish;
- taklifnomalar yozishni va tadbirlar o'tkazishni o'rganish;
- transport vositalaridan to'g'ri foydalanishni o'rganish va yo'l qoidalariga rioya etish;
- germaniyada yashash madaniyati: ijaraga uy olish, e'lonlarni tuhsunish;
- zamonaviy texnik vositalar: mobil aloqa va axborot vositalari;
- ish joylari, elektron xat va ariza yozishni o'rganish;
- nemis adabiyoti, tarjimai hol;
- uy hayvonlari va ularning ko'rinishini tasvirlash;
- shaharlar va ularning ma'daniyati;
- olmon kundalik hayoti: kun tartibi, uy ishlari;
- bayramlar, chiptlar sotib olishni o'rganish;
- tabiat, atrof- muhitni himoya qilish;
- ta'mirlash: asbob-uskunalar va jihozlar;
- sayr va sayohat qilish;
- do'slik va do'stona munosabatlar;
- shaharoldi va qishloq joylarda yashash;
- baxt va orzular;
- Yevropada yashash va ta'lim olish;
- chet elda ishlash yoki ta'lim olish;
- teatr va ko'rgazmalar;
- jamoat ishlarida ko'ngilli ishtirok etish;
- fuqarolik tashabusslari;
- tabiat: landshaft va tog'larga sayohat;
- imigratsiya va xorijdagi hayot;

- Germaniyada Yangi yil bayrami;
- nemis shaharlari tarixi: diqqatga sazovor joylar;
- mehnat bozori: zamonaviy kasblar;
- inklyuziya: paralimpiya o'yinlari;
- olmon madaniyatida kofe va qahvaxonalar;
- ixtirochilar va ixtiolar;
- kecha, bugun va ertaga;
- kelajakda shaharlar hayoti.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fanni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodi va chet tilini o'qitishga kommunikativ yondashuvdan maksimal darajada foydalanish talab etiladi. Mashg'ulotlarda darslik va o'quv qo'llanmalardan tashqari autentik materiallar: audio, video, gazeta va jurnallar, internet manbalaridan xususan, "Ibrat farzandlari" platformasidan foydalangan holda mavzulahstirilgan videomahsulotlarni o'zlashtirishda interaktiv usullarni qo'llagan holda aqliy hujum, keys-stadi, loyihalar tayyorlash, rolli o'yin, debatlar va boshqa noan'anaviy metodlaridan keng foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruh kichik guruhlarga bo'lingan holda ikki nafar professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Bunda internet manbalarini, xususan, "Ibrat farzandlari" platformasidan keng foydalangan holda mavzulahstirilgan videomahsulotlar bo'yicha ham olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturi (sillabus)da loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fremdsprache lernen
2. Gesund Essen
3. Haustiere
4. Internet
5. Kinder und Femsehen
6. Kinder und Handy
7. Luft Verschmutzung
8. Mittags schlafen
9. Rauchverbot
10. Reise
11. Pläne
12. Ausbildung
13. Einkaufen im Internet
14. Soziale Netzwerke
15. Online Lernen
16. Das Leben auf dem Land oder in der Stadt
17. Braucht man Handy im Unterricht?
18. Computerspiele im Internet
19. Hochschulen in Deutschland
20. Hochschulen in Usbekistan
21. Feste und Feiertage
22. Freundschaft
23. Intellekt
24. Fremdsprachelernen
25. Familienformen

3.

V. Ta'lif natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- til aspektlarini o'rgatish amaliyoti kompetensiyasi hamda grammatika, leksika o'qitish haqida ***tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)***
- til aspektlari to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda ularni kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)***
- o'zining til ko'nikmalarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini baholay olish va refleksiyalarini qo'llay olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. (malaka)***

4.

VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- just bo‘lib va guruhlarda ishlash;
- amaliy mashg‘ulotlar;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar;
- ijodiy ishlar yaratish.

5.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.

6.

VIII. Asosiy adabiyotlar

1. Christina Kuhn, Hermann Funk, Rita von Eggeling, Gunthe Weimann. Das Leben A1-B1. Cornelsen. Deutschland, 2022.

IX. Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Sandra Glas-Peters, Angela Pude, Monika Reimann. Menschen. Deutsch als Fremdsprache A1-B1. Kurs-und Arbeitsbuch mit Audio DVD- Rom. 2012-2016. Hueber Verlag GmbH Er Co. KG, 85737 Ismaning, Deutschland.
2. Ute Koithan u.a. Aspekte B1 Langenscheidt Verlag. Berlin. Deutschland. 2007.
3. Abdullaeva A.B. Olmon tili (ikkinci til sifatida). – T.: Aloqachi, 2009. – 320 b.
4. Jumaniyozov O. Deutsch. Oliy o‘quv yurtlari uchun. – T.: O‘qituvchi, 1997.

X. Axborot manbaalari

1. <http://www.gov.uz/edu/>–O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti
2. <http://www.uzedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi sayti.
3. <http://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portalı
4. www.cspu.uz - CHDPU rasmiy internet sayti
5. <https://www.youtube.com/@ibratfarzandlari> - “Ibrat farzandlari”

platformasi sayti (youtube kanali)

6. <https://t.me/ibratfarzandlari> – “Ibrat farzandlari” platformasi sayti (telegram kanali)

7. www.klett-sprachen.de/linie1 - Germaniyaning Klett nashriyoti rasmiy sayti

8. <http://ziyonet.uz> - ZiyoNET axborot ta’lim tarmog‘ining rasmiy sayti

9. www.hueber.de/aspekte - Germaniyaning Hueber nashriyoti rasmiy sayti

10. www.deutsch.unterricht.de - Nemis tili o‘qituvchilari qo‘shimcha ma’lumotlar yuklab olishlari uchun rasmiy sayt

11. www.grammatik.de - Nemis tili grammatikasini o‘rganish uchun qo‘shimcha materiallar sayti

7. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “29 ” august dagi qarori bilan tasdiqlangan

8. Fan/modul uchun mas’ul:

Z.Zaripova - CHDPU Nemis tili kafedrasi o‘qituvchisi

9. Taqrizchilar:

Sh.A.Atayev - TDPU “Yevropa tillari” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Z.I.Sanakulov - CHDPU Nemis tili kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

